Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ANVAR OBIDJON IJODIDA ANAFORA VA EPIFORA

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti
Aripova Oftoboyim Ahrorjon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek adabiyotidagi zamonaviy shoir Anvar Obidjon ijodida sintaktik-stilistik figuralarning (parallelizm, takror turlari – anafora va epifora, gradatsiya) semantik va estetik funksiyalarini o'rganadi. Maqolada shoir she'rlaridan misollar keltirib, ushbu vositalarning nutq ifodiligini kuchaytirishdagi roli, ularning grammatik va stilistik xususiyatlari tahlil etiladi. Natijada, sintaktik figuralar badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshirishda muhim omil ekanligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: sintaktik-stilistik figuralar, anafora, epifora, gradatsiya, parallelizm, Anvar Obidjon, badiiy nutq, lingvostilistik tahlil, emotsionallik, estetik ta'sir.

Tilning vazifasi nihoyatda keng: u inson his-tuyg‘ularini ifoda etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. So‘zlovchi tabiat va jamiyatdagi voqealar, shuningdek, bu hodisalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita qatnashuvchi narsalarga nisbatan har xil munosabatda bo‘ladi. Fikrlarni ta’sirli ifodalash imkoniyatlari cheksizdir. Bu imkoniyatlar inson tafakkurining rivojlanish darajasiga bog‘liq ravishda doimiy ravishda takomillashib, kengayib boraveradi.

“Badiiy adabiyotda ifodali nutq vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydigan,

mazmunan stabillashgan nutq oborotlari sintaktik-stilistik figuralar, vositalar deyiladi[1]” Sintaktik-stilistik figuralar badiiy tasvirda ifodalilik hosil qiladigan va ma’lum bir stilistik funksiya bajaradigan intonatsion-sintaktik vositalar, usullar hisoblanadi. Ularga parallelizm, takror va uning turlari, antiteza, inversiya, ellipsis, sanash usullari, gradatsiya kabilar kiradi. Sintaktik-stilistik vositalar nutqning emotsionalligini oshirishga yordam beradi. Sintaktik-stilistik figuralar tilning ifoda vositalari tarkibiga kiradi. Ushbu vositalar dastlab poetik nutqqa xos figuralar sifatida baholangan bo‘lsa-da, keyingi davrlarda tilshunoslik adabiyotlarida poetik nutq hodisasi nuqtai nazaridan tahlil etila boshlandi. Uslubiy vositalar nutqning ta’sirchanligi va jozibadorligini oshirish bilan birga, fikrni o‘quvchiga tez va oson yetkazish imkoniyatini vujudga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan Anvar Obidjon ijodiga nazar tashlaymiz.

Shoir ijodida anaforalarning qo’llanishi.

Anafora sintaktik-stilistik vositalar ichida grammatik funksiyasining kengligi, ifodaliligi va ta’sirchanligi, qulayligi hamda ravonligi bilan boshqa figuralardan ajralib turadi. Anaforik bog‘lanish – bu fikr qaratilgan obyektni turli nutq birliklariyordamida “takroran eslatish usulidir[2]. Aynan bir tushunchaning ma’nosini yoki fikrning mazmunini kengroq yoritish, unga urg‘u berish, bo‘rttirish, o‘quvchining diqqatini ana shu tushunchaga yoki fikrga alohida jalb qilish uchun anaforalardan foydalaniladi.

Shirin epkin cho’lga baxsh etgan susur,

Shirin da’vat qilichdan ko’prik qurur,

Shirin so’z ham, balki,qurbonlik erur,

---

[1] Рубайло Л.Т. Художественные средства языка. – М.,1961, с.54
[2]Смирнова Н.Н. Анафорические связи в русском языке. Автореф.дисс….канд.филол.наук. – М., 1972, с. 4

Shirin tildan ruhim ehsonlar tilar.(Keksa ko'ngil)

She'rning sintaktik qurilishidagi eng ko'zga tashlanadigan xususiyat – to'rt misraning barchasida **"Shirin"** so'zi bilan boshlanishidir. Shirin" so'zi she'r davomida mazmunan kengayib boradi: (epkin → da'vat → so'z → til) zanjir orqali anafora gradatsiya bilan uyg'unlashadi.

Anaforalar ba'zan grammatik jihatdan shakllangan predikativ birliklarning takrorlanishidan ham hosil qilinadi:

O'tib borar oqil va nodon

O'tib borar g'o'daygan puldor,

O'tib borar shumshuk muhojir.

O'tib borar aldoqchi dildor,

O'tib borar aldangan shoir…

Anvar Obidjon o'z ijodida epiforalardan ham unumli foydalangan. Epifora sintaktik konstruksiyalarning aynan bir xil formalar bilan tugallanish usulidir. Epifora takrorlangan nutq bo'lagining ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi:

G'am-alam va sitam berganing uchun,

Ko'zimga qatra nam berganing uchun,

Poradil qalam ham berganing uchun

Ibodat qilurman bir umr senga.

Menga ishq uzatgan in'om tufayli,

Visoldan umidvor oqshom tufayli,

Taqdirdan qasoskor ilhom tufayli

Ibodat qilurman bir umr senga.

Ushbu she'rda ham takror hamda gradatsiyadan unumli foydalanilgan. Birinchi to'rtlikda hissiy holatning bosqichli kuchayishi kuzatiladi. Dastlab umumiy ruhiy iztirob ("g'am-alam va sitam"), keyin uning tashqi ifodasi ("qatra nam"), so'ng esa ijodiga doir ("qalam") keltiriladi. Demak, gradatsiya ruhiy azobdan ijodiy ilhomga tomon rivojlangan. Parallel sintaktik qurilmalar epifora va gradatsiya bilan uyg'unlashib, badiiy-estetik yaxlitlikni yuzaga keltirgan. Shu bilan birga she'rdagi stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi natijasida she'rning lingvopoetik qimmati yuksalgan va badiiy-estetik ta'siri kuchaygan.

Xulosa

Maqola tilning ifodali vositalari sifatida sintaktik-stilistik figuralarni badiiy adabiyotda, xususan, Anvar Obidjon ijodida ko'rib chiqadi. Anafora va epifora kabi takror vositalari fikrni kuchaytirish, gradatsiya va parallelizm esa hissiy bosqichlilikni ta'minlashda samarali ekanligi she'riy misollar orqali

ko'rsatilgan. Ushbu figuralar nutqning tasirchanligini oshirib, o'quvchida chuqur estetik taassurot qoldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Anvar Obidjon. Saylanma. - Toshkent :Akademnashr, 2017.

2.Мамажонов М. Махмудов У. Услубий воситалар. Фаргона, 1994.

3.Абдупаттоев М. «Узбек тилининг поэтик синтаксиси» / монография/«Classic» / Фаргона — 2021 й.

4.To‘xtaxo‘jayev, Sh.Sintaktik takrorlar semantikasi.-Toshkent: Universitet,2020

5.Рубайло Л.Т. Художественные средства языка. – М.,1961

6. Смирнова Н.Н. Анафорические связи в русском языке. Автореф.дисс….канд.филол.наук. – М., 1972, с. 4